

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2026 Vol. 1

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR Shuhrat Sirojiddinov
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI Karomat Mullaxo'jayeva
MAS'UL KOTIB Ozoda Tojiboyeva
TAHRIR HAY'ATI Karl Rayxl (Germaniya) Isa Habibeyli (Ozarbayjon) Seyhan Tanju (Turkiya) Almaz Ulvi (Ozarbayjon) Benedek Peri (Vengriya) Vahit Turk (Turkiya) Teymur Kerimli (Ozarbayjon) Eunkyung Oh (Koreya) Nazef Shahrani (AQSh) Boqijon To'xliyev Muhammadjon Imomnazarov Bilol Yujel (Turkiya) Qosimjon Sodiqov Zulxumor Xolmanova Mustafa O'ner (Turkiya) Nurboy Jabborov G'aybulla Boboyorov Kimura Satoru (Yaponiya) Imran Ay (Turkiya) Aftondil Erkinov Nadir Mamadli (Ozarbayjon) Rashid Zohidov Otabek Jo'raboyev Bulent Bayram (Turkiya) Qo'ldosh Pardayev Nodirbek Jo'raqo'ziyev Oysara Madaliyeva Hilola Nazirova

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Saidakbar Muhammadaminov Junglarning genezisi va regional xususiyatlari: adabiy to‘plamdan fatvolar majmuyiga qadar	4
Ozoda Tojiboyeva "Favoyid ul-kibar"dagi farqli baytlar xususida	23
Sohiba Madirimova Avaz O‘tar qo‘lyozma devonlari tavsifi	37
Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev Klassik Şərq İrsinin Vizual Təqdimatında Or. 2265 "Xəmsə" Əlyazmasının Yeri və Nizami Gəncəvinin Mədəni Fəlsəfəsi	64
Gulzira G‘iyosiddinova Ojiz devoni qo‘lyozmalari tavsifi	77
LINGVISTIKA	
G‘aybulla Boboyorov Oltinko‘l bitiktoshlari: eski turkcha so‘zlarning o‘zbek tilida saqlanish holati	94
Jo‘ra Xudoyberdiyev Chig‘atoy tiliga oid ayrim mulohazalar	114
Tünzalə İsmayılova XIV – XV əsr qipçaq lüğətlərinə ümumi baxış	135

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOTOLOGY****Saidakbar Muhammadaminov**

The Genesis and Regional Features of Jong Collections: From Literary Anthology to Compendium of Fatwas 4

Ozoda Tojiboyeva

Regarding the Different Couplets in the Manuscript Sources of "Favoyid ul-kibar" 23

Sohiba Madirimova

Description of Avaz O'tar's Manuscript Divans 37

Təranə Verdiyeva, Fərhad Mirzəyev

The Place of the Or. 2265 "Khamisa" Manuscript in the Visual Representation of Classical Eastern Heritage and the Cultural Philosophy of Nizami Ganjavi (Artificial Intelligence-Based Analysis) 64

Gulzira Giyosiddinova

Description of the Manuscripts of Ojiz's Divan 77

LINGUISTICS**Gaybulla Boboyorov**

The Altin-Köl Runic Inscriptions: the State of Preservation of Old Turkic Words in the Uzbek Language 94

Jura Khudoyberdiev

Some Remarks on the Chigatai Language 114

Tunzale Ismayilova

General Overview of 14th-15th Century Kıpçak Dictionaries 135

Avaz O'tar qo'lyozma devonlari tavsifi

Sohiba Madirimova¹

Abstrakt

Maqolada 1884–1919-yillarda yashab ijod etgan xorazmlik ma'rifatparvar shoir – Avaz O'tarning 3451, 7102 hamda 942 raqamli qo'lyozma devonlari izchil tadqiq etilgan. Avaz O'tar qo'lyozma devonlari ilmiy tavsifi xronologik tartibda o'rganilib, undagi g'azal, mustazod, muxammas, murabba', musaddas, musamman, tarji'band, "Tarji'bandi xomisa", soqiynoma, ruboiy, qasida va qit'a janrlari haqida to'liq ma'lumot berilgan.

Avaz O'tar hayoti va ijodi yuzasidan amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlar shoir she'rlari badiiyati, an'anaviylik kabi masalalrni qamrab oladi. Biroq shu kungacha shoir adabiy merosi – she'rlarining mavzu ko'lamiga birlamchi manbalar asosida aniqlik kiritilmagan.

Maqolada shoir qo'lyozma devonlari ilk bor matnshunoslik va manbashunoslik aspektida o'rganilgan. Avaz O'tar devonlarning tarkibiy tuzilishi, hajmi, yozuv xususiyatlari, kotibi, muqova – tashqi tuzilishiga oid ma'lumotlar taqdim etilgan. Bundan tashqari, G. Karimov va N. Qobulov kabi olimlarning Avaz O'tar adabiy merosi ko'lami, mavzu doirasi haqidagi fikrlariga qo'lyozma devonlardagi she'rlar asosida aniqlik kiritilgan.

Kalit so'zlar: *Avaz O'tar, devon, qo'lyozma, g'azal, mustazod, taxmis, musamman, tarji'band, soqiynoma, qit'a, qasida.*

Kirish

Qo'lyozma manbalarining ilmiy tavsifini amalga oshirish har qanday qo'lyozmani to'liq tasavvur qilish imkonini beradi. Shunga ko'ra, Avaz O'tar qo'lyozma asarlari jamlangan manbalarining holati, ko'chirilgan yili, davri bilan bog'liq barcha ma'lumotlar izchil tadqiq etildi. Zero, amalga oshirilgan ilmiy tavsif keyinchalik shoir adabiy merosining ko'lamini aniqlashda hamda shoir she'rlari ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda asos manba bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

¹ Madirimova Sohiba Mahmudovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

Iqtibos uchun: Madirimova, S. M. 2026. "Avaz O'tar qo'lyozma devonlari tavsifi". *Oltin bitiglar* 1: 37 – 63.

Avaz O'tarning alohida tuzilgan ikkita qo'lyozma devoni bizgacha to'liq yetib kelgan. Hozirda ular O'zR FASHI asosiy fondida 3451, 7102 hamda 942 raqami ostida saqlanmoqda. Shoirning 3451 raqamdagi qo'lyozma devoni birinchi ko'chirilgan. Oradan bir yil vaqt o'tib, ya'ni 1908-yili uning 7102 hamda 942 raqamdagi qo'lyozma devonlari tuzilgan. Shoirning 3451 hamda 7102 raqamli qo'lyozmalaridagi she'rlari yaxlit lirik merosini tashkil etadi. 942 raqamli devon qo'lyozmasidagi she'rlar esa 3451 hamda 7102 raqamli qo'lyozmalarda takrorlangan emas. Bu qo'lyozma devonlar Avaz O'tar hayotlik davrida kitobat qilingan. Quyida ushbu qo'lyozma devonlarning ilmiy tavsifi xronologik tartibda beriladi.

Asosiy qism

Qo'lyozma devonlar tavsifi

1. 3451 raqamli “ديوان عوض” – “Devoni Avaz” hozir O'zR FA ShI asosiy fondida saqlanadi. Bu qo'lyozmada Avaz O'tar she'rlari jamlangan. Qo'lyozma “Bismillahir-rohmanir-rohim”dan boshlanib, qizil siyohda “Avaz mutaxallasi, Avaz valadi usto O'tor” sarlavhasi berilgan. Sarlavhadan keyin an'anaviy tarzda hamd g'azal ko'chiriladi. Devonda keltirilgan birinchi hamd g'azalning **matla'** qismi quyidagicha:

خوشا حمد خداوندیکه اولدور خالق اشیا
ایرور صنعیدین آنینک هر نه بارکونین ارا پیدا

*(Xusho hamd Xudovandiki, uldur Xoliqi ashyo,
Erur sun'idin oning har na bor Kavnayn aro paydo).*

Maqta':

عوض غه محض لطف فضلدين قيلغيل كرم يارب
كه تابولسون تيلي آنينك هميشه مدحينكا كويا

*(Avazg'a mahzi lutfi fazlidin qilg'il karam, yo Rab,
Ki to bo'lsun tili oning hamisha madhinga go'yo)*

[Devoni Avaz, 3451. 1^b].

Qo'lyozma hijriy 1325, milodiy 1907-yili Chokar tomonidan kitobat qilingan. Buni ushbu devon qo'lyozmasi kolofonidagi qaydlar asoslaydi: “Kotibi faqir al-haqir Muhammad Yusuf al-mutaxallas bi-l-Chokar bin Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi-Xarrot yozib itmomg'a yetkurdi. Sana 1325”.

3451 raqamli devon qo'lyozmasida Avaz O'tarning 960ta g'azal (shundan 322tasi hoshiyada berilgan), 1ta mustazod, 31ta muxammas (shundan bittasi hoshiyada), 1ta musaddas, 1 ta

musabba', 1ta qasidasi – jami 995ta she'r bor.

Avaz O'tarning 3451 raqamli devonidagi she'rlari, asosan, 7 bayt va 7 banddan tarkib topgan. Uning 960ta g'azalidan 797tasi 7 baytli, 31ta muxammasdan 19tasi 7 banddan iborat. Avaz O'tar bu borada an'anaviylikka amal qilgan. Shoir she'rlarining bayt va bandlar kesimini quyidagi jadvalda taqdim etilmoqda:

1-jadval

She'rlarning bayt, band va misralari soni									Jami
5 b.	6 b.	7 b.	8 b.	9 b.	10 b.	11 b.	12 b.	13 b.	960ta (13956)
G'azallarning bayt va misralari									
23ta (230)	4ta (48)	797ta (11158)	6ta (96)	111ta (1998)	1ta (20)	15ta (330)	1ta (24)	2ta (52)	
Mustazod									
-	-	1ta (35).	-	-	-	-	-	-	1ta (35)
Muxammas									
5ta (125)	-	19ta (665)	-	7ta (315)	-	-	-	-	31ta (1105)
Musaddas									
-	-	-	-	1ta (54)	-	-	-	-	1ta (54)
Musabba'									
-	-	-	-	1ta (63)	-	-	-	-	1ta (63)
39 baytli qasida (78 misra)									1 ta (78)
Ushbu devondagi she'rlarning umumiy misrasi: 15.291.									

Yuqoridagi jadvalda shoirning 3451 raqamli devon qo'l-yozmasidan o'rin olgan she'rlari hajmi ko'rsatildi, ular o'n besh ming ikki yuz to'qson bir (15291) misrani tashkil etadi.

3451 raqamli devon qo'lyozmasida bittadan 10 baytli va 12 baytli g'azal kiritilgan. Shulardan 12 baytli g'azal matla'si quyidagicha:

Muyassar bo'lur chog'do bazmi visol

Murodimni xurshidi topdi zavorl.

Maqta'si esa:

Yana bir nafas ichro yetmok ongo,

Yo'q imkon Avaz necha qilsom xayol [Devoni Avaz, 3451. 89^a].

Ushbu g'azal mutaqoribi musammani mahzuf (V--/V--/V--/V-) vaznida yozilgan. Qo'lyozma devonda Avaz O'tarning:

Hijroning aro sensizin, ey mahvashi dilbar,

Olam mango zindon,

Boshimg'a solur zulm ila ming sho'rishi mahshar

Bu gunbazi gardon – misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli mustazodi o'rin olgan [Devoni Avaz, 3451. 139^b, 140^a].

Bundan tashqari, uning *Orzu qilg'ong'a vaslingni ne imkondur* Avaz (7 band, 140^{a/b}-betlar. Amiriy g'azaliga taxmis), *Yuzingmudur olam aro baxsh etguchi nuri ziyo* (7 band, 144^b, 145^a-betlar. Munis g'azaliga taxmis), *Chekkanda naqqosh azal qilmish diloro, surating* (7 band, 144^{a/b}-betlar. Ogahiy g'azaliga taxmis), *Dil ishqinga muftalo bo'lubdur* (5 band, 147^b, 148^a – betlar. Navoiy g'azaliga taxmis), *Adam koshonasidin man xazin mavji duto bo'ldum* (7 band, 149^{a/b}-betlar. Ravnaq g'azaliga taxmis), *Hijron-la o'zum sohibi hush etdira bilmam* (5 band, 154^{a/b}-betlar. Navras g'azaliga taxmis) misralari bilan boshlanuvchi bir qancha taxmislari ham bor.

Avaz O'tar o'ziga zamondosh Feruz, Xolis, Xokiy, G'ulomiy, Sultoni, Nadimiy, Xodim, Chokar, Devoni, Yusuf, Xayoliy, Haqiriy, Kamoliy, Ojiz, Muznib, Mutrib, Ojiz kabilarning g'azallariga ham taxmislar bog'lagan.

Avaz O'tar she'rlari Qur'oni karim, hadisi sharif mazmun-g'oyalariga uyg'un, shoir Navoiy, Munis, Ogahiy, So'fi Olloyor, Amiriy kabi shoirlar ijodidan ilhomlanib ulg'aydi va o'z uslubini egalladi.

Avaz O'tar taxmislarining katta qismi shu kunga qadar maxsus tadqiq qilinmagan. Ular o'rganilganda, shoirning Haqiriy, Nadimiy, G'ulomiy va boshqalarning g'azallariga bog'langani ayon bo'ladi. Taxmislar – Avazning bu shoirlar ijodiga bergan yuqori bahosi. Jumladan, Avaz O'tarning G'ulomiy (11 bayt) g'azaliga yozilgan 9 bandli taxmisi shunday misralar bor:

Matla':

*Qo'yub hajr aro benavo qildilo,
Nasibamni yuz ming balo qildilo,
G'am otashida qadimni yo qildilo,
Mango ul sanam ko'b jafu qildilo,
G'ami ishqig'a muftalo qildilo* [Devoni Avaz №3451, 146^b-147^a].

Maqta':

*Avaz ul parivashgo shaydo magar
Bori dahr xayli ko'rub bir nazar,
Jahong'a alolo solur sarbasar,
G'ulomiy kibi borcha ushshoqlar
Ongo jonlorini fido qildilo.*

Avaz O'tar she'rlarining to'rtidan bir qismigina 1951-, 1956, 1976-, 1984-, 2025-yillardagi "Tanlangan asarlari"da berilgan

[Бобожонов 1951, 64; Юсупов 1956, 313; Рахмонов 1976, 370; Юсупов, Рахмонов 1984, 330; Ismoilova 2025, 559]. Bu esa shoir ijodi to'liq tadqiq qilinmaganini ko'rsatadi. Boshqa tarafdin, to'liq bo'lmagan bu nashrlar Rog'ib, Muznib, Haqiriy, Nadimiy, G'ulomiy, Xokiy, Ojiz, Oqil kabi zamondosh shoirlar ijodiga Avaz O'tar munosabati masalasini chetga surgan.

Avaz O'tar ijodida muxammasning ikki turi ham uchraydi. Ushbu qo'lyozmadan o'rin olgan 31ta muxammasning 2tasi tab'i xuddir. Quyida bu turkum muxammaslardan birining matla va maqtasi bilan tanishamiz:

Matla':

*Ichmokka maishat mayini ushbu zamone,
Maxmur elining chiqq'usi ko'k sori fig'one
Kim, boda olorning o'lodur rohati jone,
Soqiy, Ilah ol jomi safobaxshi ravone,
Lutfila damodam biza ul ruhi ravone...*

[Devoni Avaz №3451, 152^b-153^{a/b}]

Maqta':

*Gar bo'lsa muyassar **Avaz-o**, yori visole,
Har oshiqi mahzun g'amina mahiyi sole,
Albatta topor buhjat ila hazzi kamole,
Rohatmu yoshor ma'rifat on ro'zi maqole.
Aylormu tabassum ruxi arbobi maone".*

Ushbu tab'i xud 1128 raqamli qo'lyozma bayozga ham ko'chirilgan va unga shunday sarlavha berilgan *مخمس عوض غزل* محمد هادی – "Muxammasi Avaz g'azali Muhammad Hodiy" [1128, 101^b-102^{a/b}]. Bu esa kitobxon ko'z oldida "Avazning Hodiy g'azaliga taxmisi" degan fikrni shubha ostiga qo'yadi. Biroq shoirning 3451 hamda 7102 raqamli devonlar qo'lyozmalarida bu muxammas *مخمس عوض* – "Muxammasi Avaz" tarzida sarlavhalangan. 1128 raqamli qo'lyozma bayozdagi muxammas maqta'sida ham 3451, 7102 raqamli devon qo'lyozmalarida ham hech qanday taxallus kelmagan. *Ikkinchidan*, 1128 raqamli bayoz maqta'sida kelgan *مقالی* "maqole" so'zi *معالی* "ma'ole" tarzida o'zgargan. Matn mazmuniga "maqole" so'zi mos tushadi. "Ma'ole" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "buyukliklar, sharaf va hurmatlar; oliy fikrlar" degan ma'nolarni anglatadi. "Maqole" so'zi esa "so'z, nutq" mazmunini ifoda etadi.

Qo'lyozma devonga Avaz O'tarning 9 banddan iborat musaddasi ham kiritilgan. Uning birinchi bandi:

Sango kim aylogoy husn-u malohatda barobarlik,

*Ayon qilg'usidur fatton ko'zing oyin-u kofarlik,
Qattol-u g'amza-vu bedodkin-u qahr-u gustarlik,
Ado-vu nag'ma-vu g'anj-u dalol-u¹ sheva berurlik,
Sango ustoding o'rgotmish magar qonun dilbarlik
Jafo-vu javr-u zulm-u ishva-vu noz-u sitamgarlik
Oxirgi band:*

*Ravon qilsong qading sarvin nechukkim kabk beparvo,
Nechuk qilg'ung Avazni doimo hajring aro shaydo,
Xiroming solg'usi dahr ahlining boshig'a ming savdo,
Tushub olamg'a g'avg'o-u sho'rish mahshar bo'lur paydo,
Sango ustoding o'rgotmish magar qonun dilbarlik
Jafo-vu javr-u zulm-u ishva-vu noz-u sitamgarlik*

[Devoni Avaz, 3451, 157^b-158^{a/b}].

Shoir musabba' janrida ham she'r yozgan. Bu musabba' 11 banddan tashkil topgan:

*Shukrkim mumtozi Xusravlor aro Qoonimiz²,
Ma'dalat avji uza mahzun mahi tobonimiz,
Boshimizg'a zoti farrux soyayi Subhonimiz,
Adlparvar, lutfi gustar, Xonimiz, Xoqonimiz,
Dahr ayshi ishratidin zarra yo'q armonimiz,
Shoh bizning shohimiz, Sulton bizing sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Maqta':

*Soqiyo so'ng'il qadah, kimdur shohi Jami janob,
Bordurur omoda asbobi ma'ishat behisob,
Tinmoyin ichmok kerak har dam sharob la'lnob
Vah ne Jam kim ma'dalat avji duraxshon oftob
Olam ahlidur Avazdek davlatidin komyob
Shoh bizning shohimiz, Sulton bizing sultonimiz,
Davr bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Musabba' janridan keyin 39 baytdan tarkib topgan qasida ko'chirilgan. Qasida matla'si:

*Shukrkim, keldi tumon ming fayz ila fasli bahor,
Qilg'oli sartosar olamning ichini lolazor.*

Maqta':

Aylogil ushbu duolorni hamuldam mustajob

¹ **G'anj-u dalol** غنج دلال – noz-karashma, ishva, qo'sh-ko'z uchirish kabi ma'nolarni anglatadi.

² **Qoon** قآن Xoqon (Chin hukmdorlarining unvoni, buyuk podshoh, imperator).

Hurmati zoti qadimig, ey Karim-u bir-u bor


[Devoni Avaz, 3451, 159^b-160^{a/b}-161^a].

1^b sahifadan 139^b sahifagacha – g'azal, 139^b sahifadan 140^a sahifagacha – mustazod, 140^a sahifadan 157^b sahifagacha – muxammaslar, 157^b sahifadan 158^b sahifagacha – musaddas, 158^b sahifadan 159^b sahifagacha – musabba', 159^b sahifadan to 161^a sahifagacha – qasida janridagi she'rlar joylashtirilgan. Qo'lyozma boshida 4, oxirida esa 3 sahifa bo'sh qoldirilgan.

Qo'lyozma qora siyohda nasta'liq xatida bitilgan. She'rlar qizil siyohda raqamlangan. Ba'zi o'rinlarda she'rning janrini ko'rsatish uchun qizil rangda "G'azal" yoki "G'azali Avaz", "Musaddasi Avaz" kabi sarlavhalar qo'yilgan. Devon sahifalarining izchilligini ko'rsatish maqsadida kotib tomonidan poygir berilgan.

Devon muqovasi to'q yashil rangda. Muqovaga naqsh qo'yilgan, uning yuqori va past qismiga "Amali Muhammad Rahim sahhob – 1326" degan yozuv bitilgan. Muqova o'rtasi gulli nashq bilan bezatilgan. Qo'lyozma matni rus fabrika qog'oziga ko'chirilgan. Sahifadagi she'rlar ikki ustun shaklda, har sahifada o'rtacha 17-18 satr she'r berilgan. Qo'lyozmaning 1^b, 2^b, 6^b, 7^{a/b}, 33^a sahifalaridagi she'rlar matni bo'yalgan. Qo'lyozma o'lchovi: 27,5x17,5. Devon 164 varaq, 328 sahifadan iborat.

2. 7102 raqamli "ديوان عوض" – "Devoni Avaz" – O'zR FASHI asosiy fondida saqlanadi. Ushbu qo'lyozmaning 1^b sahifasidan to 211^b sahifasigacha faqat Avaz O'tar she'rlari kitobat qilingan. Devon 3451 raqamli qo'lyozmadagi kabi "Bismillohir-Rohmanir-Rohim"dan boshlanib, ilk g'azaldan oldin qizil rangda *Avaz al-mutaxallasi ba Avaz valadi usto O'tar* sarlavhasi berilgan. Sarlavhadan keyin an'anaviy tarzda *Xusho hamdi Xudovandiki, uldur Xoliq ashyo* misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli hamd-g'azal ko'zga tashlanadi.



Qo'lyozma hijriy 1326, milodiy 1908-yili Mullo Boltaniyoz Usto Qurbonniyoz tomonidan ko'chirilgan. Devon kolofoni quyidagicha: *Alhamdulillah val-minna ushbu devon Avazkim bo amri Sulton az-zamon va nodir ad-davron a'ni Abu al Muzaffar va al-Mansuri Abu al-G'ozi Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon dom-a davlatuhu va shavkatuhuning farmoni oliylori bila bir ming uch yuz yigirma oltinchi yili mohi Sha'bonning yigirma beshlanji kuni, yakshanba kuni erdikim, Mullo Boltaniyoz Usto Qurbonniyoz yozib itmomig'a yetkurdi. Sana 1326.*

7102 raqamli qo'lyozma devon kolofonidagi ...*mohi Sha'bonning yigirma beshlanji kuni, yakshanba kuni...* milodiy yil hisobi bilan 1908-yil 25-avgustga to'g'ri keladi.

Avaz O'tarning 7102 raqamli devon qo'lyozmasida 1332ta g'azal (shundan 370tasi hoshiyada), 1ta mustazod, 49ta muxammas (18tasi hoshiyada), 5ta musaddas (3tasi hoshiyada), 1ta musabba', 3ta qasidasi (2tasi hoshiyada) bor. Jami: 1391ta she'r.

7102 raqamli devon qo'lyozmasi 3451 raqamli devon qo'lyozmasining to'ldirilgan ikkinchi nusxasi bo'lib, buni quyidagi jihatga ko'ra asoslash mumkin:

Birinchidan, 3451 raqamli devondagi 997ta she'rdan 996ta she'r (bayt, misralari saqlangan holda) 7102 raqamli devonga aynan kiritilib, faqat 3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi 7 baytli g'azal qayta ko'chirilmagan. Ushbu g'azal shunday:

Vahkim, asiri kulfat-u anduhi furqatman hanuz,
Ne nav' kelturgumdurur ul darda toqatman hanuz.

Maqta' bayt:

Aylor hamisha yorning vaslin Avazdek orzu,
Vahkim, asiri kulfat-u anduhi furqatman hanuz

[Devoni Avaz, 3451, 52^b].

G'azal radd ul-matla' san'ati asosida yozilgan. 3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi ushbu g'azal shoirning j "ze" harflari berilgan 52^b-sahifa hoshiyasida ko'zga tashlanadi. Ushbu g'azal hoshiyada joylashgani bois 7102 raqamli devon qo'lyozmasiga ko'chirishda uni nazardan qochirgan bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, 3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi 997ta she'r 394taga to'ldirilib, 7102 raqamli qo'lyozma devonga kitobat qilingan. Natijada, 7102 raqamli devon qo'lyozmasidagi she'rlar soni 1391taga yetgan. Devonning dastlabki qo'lyozmasi (Devoni Avaz. 3451) 1907-yili, ikkinchi nusxasi (Devoni Avaz. 7102 inv.) 1908-yili ko'chirilgan. Mana shu 394ta she'rning aynan 392tasi 7102

raqamli devon qo'lyozmasi hoshiyalariga, qolgan ikkitasi – *Bersa mango shohanshahim ko'b yaxshi erdi bir ulog'* [Devoni Avaz, 7102, 85^a] misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal hamda *To falak davri maning baxtim nigunsor aylodi* [Devoni Avaz, 7102, 208^{a/b}] misrasi bilan boshlanuvchi 7 bandli musaddas "asosiy matn"da berilgan.

7102 raqamli devon qo'lyozmasiga yangi ko'chirilgan **394ta** she'r janrlar kesimida quyidagicha:

2-jadval

G'azal	Muxammas	Musaddas	Qasida	Jami
370ta	18ta	4ta	2ta	394

7102 raqamli devondan o'rin olgan 370 ta g'azal, asosan, 5, 7, 9, 11, 13 baytdan tarkib topgan. Bular: *Charxi zolim qilg'oli ul sho'xi dilbardin judo...* (5 bayt) (Devoni Avaz. 7102, 1^b-bet), *Vahkim, qilurlor do'stlor ta'n-u malomatlor mango...* (7 bayt) (Devoni Avaz. 7102, 4^b-5^a-betlar), *Ey ko'ngul, ishq ichro kirding, jon kerokmosmu sango...* (7 bayt) (Devoni Avaz. 7102, 11^a-bet), *Visol o'lmosa man hazing'a nasib...* (7 bayt) (Devoni Avaz. 7102, 18^b-bet), *Mani qil vosil-u maqsud yo Rab...* (7 bayt) (Devoni Avaz. 7102, 20^b-bet) kabi misralari bilan boshlanadi

7102 raqamli devon qo'lyozmasiga yangi kiritilgan **18ta** muxammasning barchasi 7 bandli bo'lib, 18ta muxammasdan 17tasi **taxmis**, 1tasi **tab'i xuddir**. 7 bandli taxmislarining birinchi misralari quyidagicha: *Do'stlar, oytingki, sho'xi dilsitonim qaydadur?...* (Devoni Avaz. 7102, 190^b, 191^a-betlar. Hoshiya. Ojiz g'azaliga taxmis), *To qo'lumdin ketgali orom-u sabr-u ixtiyor* (7 band, 191^{a/b}-betlar. Hoshiya. Kamoliy g'azaliga taxmis), *Oromijon-u nozanin, mahbubi g'amxoring kelur* (Devoni Avaz. 7102, 191^b, 192^a-betlar. Hoshiya. Haqiriy g'azaliga taxmis), *Zolim-u nooshno ul ko'zlari fattoningiz* [Devoni Avaz, 7102, 192^{a/b}-betlar. Hoshiya. Tabibiy g'azaliga taxmis], *Shukrkim, maqsud murg'i bo'ldi bu dam romimiz* (Devoni Avaz. 7102, 192^b, 193^a-betlar. Hoshiya. Xayoliy g'azaliga taxmis), *Toki bo'ldum ishq aro man notavon-u xastazor* (Devoni Avaz. 7102, 193^{a/b}-betlar. Hoshiya. Yusuf g'azaliga taxmis), *Hijron aro kuydurgoli jon-u dilimni norg'a* (Devoni Avaz. 7102, 194^b, 195^a-betlar. Hoshiya. Feruz g'azaliga taxmis), *"Hajr oqshomida bas xurshidi xovarni netoy?* (Devoni Avaz. 7102, 195^{a/b}-betlar. Devoni g'azaliga taxmis), *"Borg'oli g'ayri sori zebo nigorim kelmodi* (Devoni Avaz. 7102, 195^b, 196^a-betlar. Hoshiya. Mutrib g'azaliga taxmis), *Rasvo bo'lubman sarbasar, Majnunsifat bozorg'a* (Devoni Avaz. 7102, 196^{a/b}-betlar. Hoshiya. Nadimiy g'azaliga taxmis), *Ayo mahbubayi oshubi davron* (Devoni Avaz. 7102, 196^b,

197^a-betlar. Hoshiya. Muznib g'azaliga taxmis), *Hajr jonimg'a ne yonglig' javri ozor aylodi* (Devoni Avaz. 7102, 148^{a/b}-betlar. Hoshiya. Xodim g'azaliga taxmis), *Duri maqsudimcha aylob davr-u davron bu kecha* (Devoni Avaz. 7102, 198^{a/b}-betlar. Hoshiya. Chokar g'azaliga taxmis), *Bu oqshom dilbar-u mahbublig' rasmin nizom aylob* (Devoni Avaz. 7102, 198^a, 199^b-betlar. Hoshiya. Ogahiy g'azaliga taxmis), *Qildilor ahd mango va'dasi yalg'ong'inalar* (Devoni Avaz. 7102, 199^b, 200^a-betlar. Hoshiya. Ogahiy g'azaliga taxmis), *Somi' Olloh mahrami xosig'a sirdosh aylosong* (5 band) (Devoni Avaz. 7102, 200^{a/b}-betlar. Hoshiya. So'fi Ollohyor g'azaliga taxmis).

3451 raqamli devon qo'lyozmasida uchramaydigan 7 bandli tab'i xud 7102 raqamli devon qo'lyozmasida quyidagi band bilan boshlanadi:

*Hijron aro kuydurgoli jon-u dilimni norg'a,
Ketti qo'limdin ixtiyor ul sho'xi dilozorg'a,
O'zumni rasvo qilg'oli sar to ba po bozorg'a,
Oshiq bo'lubman ohkim bir nargisi bemorg'a,
Qilmos tarahhum bir yo'li man notavoni zorg'a.*

Maqta'si:

*Bo'lg'oymu hijronido bu ag'yor bedil bir yo'li,
Bo'lg'oy qochon bo'lsom dog'i g'amxor bedil bir yo'li,
Bo'lmos edim ushshoq aro bemor bedil bir yo'li,
Feruz yonglig', ey **Avaz**, man zor-u bedil bir yo'li,
Ko'rdum yuzin bir dam ko'ngul ul sarvi gulruxsorg'a*

[Devoni Avaz. 7102, 195^b, 196^a].

7102 raqamli devon qo'lyozmasida 5 ta **musaddas** uchraydi. 3451 raqamli devon qo'lyozmasida esa *Sango kim aylogoy husn-u malohatda barobarlik* misrasi bilan boshlanuvchi 9 banddan tarkib topgan bitta musaddas bor, xolos. *Bil olam ishin misli xobi xayol* (7 band) (Devoni Avaz. 7102, 206^b, 208^a-betlar. Hoshiya), *Do'stlor, ishqni ranj ila balosini ko'rung* (7 band) (207^{a/b}-betlar. Hoshiya), *"Jahon bog'ig'a hech yo'qdur misol"* (7 band) (Devoni Avaz. 7102, 208^{a/b}-betlar. Hoshiya), *"To falak davri maning baxtim nigunsor aylodi"* (7 band) (Devoni Avaz. 7102, 207^{a/b}-betlar) misralari bilan boshlanuvchi musaddaslar esa 3451 raqamli devon qo'lyozmasida ko'zga tashlanmaydi.

7102 raqamli devon qo'lyozmasida 3 ta qasida ham bor. Faqat *Shukrkim, keldi tuman ming fayz ila fasli bahor* misrasi bilan boshlanuvchi 39 baytli qasida 3451 raqamli devon qo'lyozmasiga kitobat qilingan. Qolgan ikkitasi 58, 42 baytdan iborat. 58 baytli qasida matla'i quyidagicha:

*Keldi Haq lutfi bila yuz shukr fasli navbahor
Qilg'oli tokim jahon mulkini yaksar lolazor.*

Maqta':

*Aylabon miskin Avazni barcha hojatin ravo
Shohig'a ber iki yuz yosh, ey Karim-u bir-u bor*

[Devoni Avaz. 7102, 209^{a/b}].

Qo'lyozmaning 210^b, 211^a-sahifalariga shoirning 42 baytdan tarkib topgan navbatdagi qasidasi ko'chirilgan. Matla'si:

*Chiqib sur'at bila chun hut dashtidin shahi xovar
Hamal gulzorig'a kirdi qilurg'a sayr sartosar.*

Maqta':

*Avazni bu duoyi xayrini maqbul qil, (ey) yo Rab,
Ba Haqqi Ahmad-u Bubakr, Umar, Usmon ila Haydar.*

Avaz O'tarning ushbu qasidalari "Qasidai tomm" turiga mansubdir.

7102 raqamli devon qo'lyozmasidan o'rin olgan shoir she'rlarining umumiy hajmi quyidagi jadvalda berildi:

3-jadval

Sheʼrlarning bayt, band va misralari soni									Hajmi:
5 b.	6 b.	7 b.	8 b.	9 b.	10 b.	11 b.	12 b.	13 b.	959 (14092)
Gʻazallarning bayt va misralari									
23 ta (380)	4 ta (48).	796 ta (11144).	6 ta (96).	111 ta (1998).	1 ta (20).	15 ta (330).	1 ta (24).	2 ta (52).	
Yangi kiritilgan gʻazallarning bayt va misralari									
15 ta (150)	–	352 ta (4928).	1 ta (16).	5 ta (90).	–	–	–	–	373 (5184)
Gʻazallarning umumiy bayti, misralari soni									
38 ta (380)	4 ta (48).	1148 ta. (16072).	7 ta. (112).	116 ta. (2088).	1 ta. (20).	15 ta. (330).	1 ta. (24).	2 ta. (42)	1332 ta (27836)
Mustazod									
–	–	1 ta (14).	–	–	–	–	–	–	1 ta (14)
Muxammaslarning band va misralari									
5 ta (125)	–	19 ta (665).	–	7 ta (315).	–	–	–	–	31 ta (1105)
Yangi kiritilgan muxammaslarning bandi, misralari									
–	–	18 ta (630).	–	–	–	–	–	–	18 ta (630)
Muxammaslarning umumiy bayti, misralari soni									
5 ta (125)	–	37 ta (1295).	–	7 ta (315).	–	–	–	–	49 ta (1735)
Yangi kiritilgan musaddaslarning bandi, misralari									

-	-	4 ta (168).	-	-	-	-	-	-	4 ta (168)
Musaddaslarning umumiy bandi, misralari									
-	-	4 ta (168).	-	1 ta (54)	-	-	-	-	5 ta (222)
Musabba'									
-	-	-	-	1 ta (63)	-	-	-	-	1 ta (63)
Qasidalarining bayti, misralari									
39 baytli qasida (78 misra)									1 ta (78)
Yangi kiritilgan qasidalarining bayti, misralari									
58 va 42 baytli qasida (100 misra).									2ta(100)
7102 raqamli devondan o'rin olgan she'rlarning umumiy soni 1391 (30.048 misra).									

Yuqoridagi jadvaldan ko'rish mumkinki, shoirning 7102 raqamli devoni qo'lyozmasida o'ttiz ming qirq sakkiz (30048) misra she'ri o'rin olgan. 3451 raqamli devon qo'lyozmasidan 7102 raqamli devonga qayta ko'chirilmay qolgan 7 baytli g'azal misralari ham qo'shib hisoblansa, mana shu devon qo'lyozmalarida shoirning jami **30062 misra** she'ri borligi aniqlashadi.

Avaz O'tarning 3451 hamda 7102 raqamli devon qo'lyozmalaridagi g'azallari eski o'zbek yozuvi alifbosidagi 32ta harfdan 30ta harfga bitilgan. پ (pe) va ژ (je) harflariga g'azallar uchramaydi. Buni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin:

4-jadval

№	Eski o'zbek yozuvidagi harflar tartibi	3451-inv. 1907-yil	7102-inv.ga yangi qo'shilgan g'azallar 1908-yil	7102-inv.dagi she'rlarning umumiy soni
1.	ا (alif)	81 ta	49	130
2.	ب (be)	48 ta	16	64
3.	پ (pe)	-	-	-
4.	ت (te)	31 ta	24	55
5.	ث (se)	10 ta	-	10
6.	ج (jim)	3 ta	-	3
7.	چ (chim)	1 ta	-	1
8.	ح (he, hoyi huttiy)	1 ta	1	2
9.	خ (xe)	10 ta	3	13
10.	د (dol)	10 ta	4	14
11.	ذ (zol)	3 ta	-	3
12.	ر (re)	122 ta	54	176
13.	ز (ze)	40 ta	19	(59-1=) 58

14.	ڙ (je)	–	–	–
15.	س (sin)	13ta	3	16
16.	ش (shin)	22ta	12	34
17.	ص (sod)	9ta	1	10
18.	ض (zod)	10ta	5	15
19.	ط (to (itqi)	6ta	1	7
20.	ظ (zo (izg'i)	3ta	–	3
21.	ع (ayn)	4ta	–	4
22.	غ (g'ayn)	10ta	5	15
23.	ف (fe)	4ta	1	5
24.	ق (qof)	35ta	14	49
25.	ك (kof)	10ta	6	16
26.	گ (gof)	62 ta	15	77
27.	ل (lom)	54ta	15	69
28.	م (mim)	48 ta	23	71
29.	ن (nun)	97ta	40	137
30.	و (vov)	11ta	3	14
31.	ه (hoyi havvaz, he)	75ta	19	94
32.	ی (yo)	127ta	40	167
Jami:		960 ta.	373	1332

3451 hamda 7102 raqamli devon qo'lyozmalaridagi g'azallar qiyosiy o'rganilganda, har ikki devon qo'lyozmasini ko'chirgan kotib eski o'zbek yozuvi alifbosidagi harflar tartibiga amal qilmagani ko'zga tashlandi. 3451 raqamli devon qo'lyozmasining 21^a-sahifasiga shoirning ب – “be” harfiga yozilgan g'azallari ko'chirilgan. Ushbu sahifa “hoshiya”sida esa shoirning ن – “nun” harfidagi *May tobi birla orazing, ey soqiy, bo'ldi gul bu kun...* misrasi bilan boshlanuvchili 7 baytdan tarkib topgan g'azalni o'qiymiz. Bu o'rinda alifbo tartibi buzilgani ko'rinadi. G'azal 7102 raqamli devon qo'lyozmasida ن – “nun” harfi bilan tugaydigan g'azallar guruhida birinchi bo'lib keladi [Devoni Avaz. 7102, 129^b, 130^a]. Ta'kidlash kerakki, 3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi ushbu g'azal “nun” harfiga yozilgan g'azallar qatorida qayta berilmagan [Devoni Avaz. 3451, 95^b-108^b].

3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi ج – “jim” va چ – “chim” harflari bilan tugaydigan g'azallar turkumida ham eski o'zbek yozuvi alifbosida berilgan harflar ketma-ketligiga amal qilinmagan. 3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi *Man mehr qilsom umid ul dilraboni ko'rgoch...* misrali 7 baytli g'azal *Ey labloringo sharbati hayvon muhtoj...* hamda *Yuzing anvorig'a, ey sho'x, xurshidqamar muhtoj...* (Devoni Avaz. 3451, 28^b) kabi misralari bilan boshlanuvchi

7 baytli g'azallardan oldin ko'chirilgan. Ma'lumki, eski o'zbek yozuvi alifbosida dastlab ج - "jim" keyin چ - "chim" harfi berilgan. 7102 raqamli devon qo'lyozmasida ham bu hol takrorlangan [Devoni Avaz. 7102, 35^b-36^a].

Yana bir o'rinda esa 3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi g'azallarning eski o'zbek yozuvi alifbosidagi harflar ketma-ketligi noto'g'ri berilgani kotib tomonidan tuzatilgan. Masalan, 3451 raqamli devon qo'lyozmasining 88^a-sahifasida shoirning ل - "lom-alif" harfiga yozilgan g'azallari mavjud. Shu sahifaning hoshiyasiga shoirning *Tut qo'lumni aylobon lutf-u inoyat, yo Karim* misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azaldan 2 bayt keltiriladi. Kotib bu g'azal misralari ustidan qizil siyohda (nuqtalar asosida) chizib, ularning o'rinsiz ko'chirilganiga ishora qiladi. Ushbu g'azal 3451 raqamli devon qo'lyozmasining 94^b-sahifasi hoshiyasiga 7 bayt qilib qayta ko'chirilgan. 7102 raqamli devon qo'lyozmasining 129^a-sahifasiga esa mana shu g'azal to'liq asosiy matn tarkibida alifbo tartibida kitobat qilingan.

Qo'lyozma nasta'liq xatida bitilgan. She'rlar matni qora, sarlavhalari esa qizil siyohda "1 G'azali Avaz", "Mustazodi Avaz" yoki "Muxammasoti Avaz" ko'rinishida ko'zga tashlanadi. Devon sahifalarida poygir bor. Qo'lyozma sahifalari yaxshi saqlangan. Devon hoshiyalaridagi she'rlarga ham sarlavha berilgan, biroq she'rlar raqamlanmagan.

Devon muqovasi to'q yashil rangda. Unda uchta romb shaklidagi o'yma naqsh bor. Muqovaning yuqori va past qismiga unvon tushirilgan. Unvonda 3451 raqamli devon muqovasidagi kabi "Amali Muhammad Rahim sahhob - 1326" degan yozuv bor. Muqovaga gulli nashq ishlangan. Qo'lyozma matni rus fabrika qog'oziga kitobat qilingan. Sahifadagi she'rlar ikki ustunda, har sahifada o'rtacha 18-19 satr she'r yozilgan. Qo'lyozmaning 49^a, 52^a, 72^a, 88^a, 89^{a/b}, 97^a, 98^b, 109^a, 111^a, 209^a sahifalardagi she'rlar matni bo'yalgan. Qo'lyozma o'lchovi: 28,5x18,5. Devon 210 varaq, 420 sahifadan iborat. Qo'lyozma boshida va oxirida 4 sahifa bo'sh qoldirilgan.

3. №942 raqamli دیوان عوض - "Devoni Avaz" - O'zR FA SHI asosiy fondida saqlanayotgan qo'lyozmada ham faqat Avaz O'tar she'rlari kitobat qilingan. Qo'lyozmadagi "Bismillohir-Rahmonir-Rahim" qora siyohda, undagi birinchi g'azal esa qizil siyohda "G'azaliyoti Avaz" tarzida sarlavhalangan. Undan keyin an'anaviy tarzda hamd-g'azal ko'chiriladi:

حق دیدی ایشاو رسل وصفینک دالولاک لما

امت مثالی بار دیسام جمله بنی تانک یوق سنکا

(Haq dedi: Ey shohi Rusul, vasfingda "lavlok" lamo
Ummat misoli bor desam, jumla nabiyy tong yo'q sango).


Maqta':

قیلغیل شفاعاتینک بیلہ محزون عوض نی شادکام
کیم بار کناهی کثرتی بیرله خزین صبح و مسا

(Qilg'il shafooting bila mahzun Avazni shodkom
Kim bor gunohi kasrati birla hazin subh-u maso)

[Devoni Avaz. 942, 1^b-bet].

Qo'lyozma Abulg'ozī Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon farmoniga ko'ra, Usto Qurbonniyozning o'g'li mullo Boltaniyoz tomonidan hijriy 1326-, milodiy 1908-yili ko'chirilgan. Ushbu kotib Muhammad Rahimxon II davrida Nadimiy taxallusi bilan tanilgan.



Qo'lyozma devon kolofoni quyidagicha berilgan: *Alhamdulillah va-l-minna ushbu devon Avazning ikkilanji mujallidi kim bo amri sulton az-zamon-i va nodir ad-davron a'ni Abu al-Muzaffar va al-Mansur Abu al-G'ozī Sayyid Muhammadrahim Bahodirxon domi davlatuhu va shavkatuhuning farmoni oliylori bila bir ming uch yuz yigirma oltılanji yili mohi Shavvolning o'n ikkilanjisi, juma kuni erdi kim mullo Boltaniyoz al-mutaxallas bi an-Nadimiy valad usto Qurbonniyoz yozib itmomg'a yetkurdi. Sana 1326.*

942 raqamli devon qo'lyozmasi kolofonidagi hijriy 1326-yil "Shavvolning o'n ikkilanjisi, juma kuni" milodiy yil hisobi bilan 1908-yil 12-oktabrga to'g'ri keladi.

Avaz O'tar 35 yil umr kechirgan bo'lsa-da, bu qisqa umri davomida samarali ijod qilgan. Buni uning bir yilda ikkita devon tuzgani bilan izohlash mumkin. 7102 raqamli qo'lyozma devoni milodiy 1908-yil 25-avgustda ko'chirilgan bo'lsa, 942 raqamli ikkinchi devoni milodiy 1908-yil 12-oktyabrda kitobat qilingan.

Devonga Avaz O'tarning 848ta g'azal (shundan 174tasi hoshiyada), 3ta mustazod, 167ta muxammas (shundan 21tasi hoshiyada), 10ta murabba', 10ta musaddas, 6ta musamman, 6ta tarje'band (shundan 5tasi Alisher Navoiy "Xamsa"siga yozilgan tarje'band), 5ta soqiynoma, 91ta ruboiy, 3ta qasida, 28ta qit'a ko'chirilgan. Jami: **1177 ta** she'r bor.

942 raqamli devon qo'lyozmasidagi g'azal va muxammaslar, asosan, 7 bayt va banddan iborat. Buni quyidagi jadval asosida ko'rish mumkin:

5-jadval

Sheʼrlarning misralari va soni									Hajmi:
5 b.	6 b.	7 b.	8 b.	9 b.	10 b.	11 b.	12 b.	13 b.	848 (13154)
Gʼazal									
1 ta (10)	1ta (12)	527ta (7378)	8ta (128)	302ta (5436)	4ta (80)	5ta (110)	-	-	
Mustazod									
-	-	3ta (42)	-	-	-	-	-	-	3ta (42)
Muxammas									
17 ta (425)	3 (90)	145 ta (5075)	1 (40)	1 ta (45)	-	-	-	-	167ta (5675)
Musaddas									
-	1 ta (24)	9ta (252)	-	-	-	-	-	-	10ta (276)
Murabbaʼ									
-	-	10 ta (420)	-	-	-	-	-	-	10ta (420)
Musamman									
-	-	6ta (330)	-	-	-	-	-	-	6ta (330)
Tarjiʼbandi Avaz. Hayrat vazni									
-	-	112 misra	-	-	-	-	-	-	112 misra
Tarjiʼoti Avaz. Farhod-u Shirin vazni									
-	-	112 misra	-	-	-	-	-	-	112 misra
Tarjiʼbandi Avaz. Layli-Majnun vazni									
-	-	112 misra	-	-	-	-	-	-	112 misra
Tarjiʼbandi Avaz. Bahromkoʻr vazni									

-	-	98 misra	-	-	-	-	-	-	98 misra
Tarji'bandi Avaz. Iskandar vazni									
-	-	98 misra	-	-	-	-	-	-	98 misra
Tarji'bandi Avaz									
1 ta (80)	-	-	-	-	-	-	-	-	1 ta (80)
Soqiynoma									
40 b.	41 b.	42 b.	43 b.	44 b.	45 b.	46 b.	47 b.	48.	Hajmi:
-	-	1ta (84)		2ta (176)	1ta (90)	1ta (92)			5ta 442
Ruboiy									
91ta ruboiy 364 misra.									91ta (364)
Qasida									
30 b.	31 b.	32 b.	33 b.	34 b.	35 b.	36 b.	42 b.	62 b.	Hajmi:
-	-	-	-	-	-	1ta (72).	1ta (84).	1ta (124).	3ta (280)
Qit'a									
2 b.	3 b.	4 b.	5 b.	6 b.	7 b.	8 b.	9 b.	10 b.	Hajmi:
8ta (32)	6ta (36)	10ta (80)	3ta (30)	1ta (12)	-	-	-	-	28ta (190)
Jami: 1177ta she'r (22055 misra)									

Adabiyotshunos G'ulom Karimov Avaz O'tarning O'zR FASHI dagi 942, 3451 raqamli qo'lyozma devonlari, uning adabiy merosi ko'لامي haqida ma'lumot beradi [Каримов 1966, 261]. G'ulom Karimov Avaz O'tar adabiy merosini "20000 misradan oshiqroqdir" deb ko'rsatadi hamda "Shoir devoniga "Saodat-ul-iqbol" ("Baxtli iqbol") deb nom qo'yan"ini asossiz tarzda bayon qiladi. Yunus Yusupov "O't chaqnagan satrlar" kitobida ham Avaz O'tar (3451, 7102 hamda 942 raqamli) qo'lyozma devonlarini G'.Karimov qaydlariga tayanib, "Saodat-ul-iqbol" deb nomlangan" degan qat'iy fikrni keltiriladi [Юсупов 1983, 147].

Vaholanki, G'.Karimov va Yunus Yusupov ta'kidlab ko'rsatayotgan 3451, 7102 hamda 942 raqamli qo'lyozma devonlarga maxsus nom berilmagan. Ikkinchidan, Avaz O'tarning 3451 raqamli devonida o'n besh ming ikki yuz to'qson bir (15291) misra, 942 raqamli qo'lyozma devonida esa yigirma ikki ming ellik besh (22055) misra she'r borligi G'. Karimov keltirgan raqamdan bir necha ming misra ko'p ekanligini ta'kidlash kerak.

Adabiyotshunos N. Qobulov esa Avaz O'tarning O'zR

FASHida saqlanayotgan 3451, 7102, 942 qo'lyozma devonlaridagi adabiy merosi ko'lamini G'. Karimov (20000 misradan oshiq, deb ko'rsatgan) qaydidan farqli o'laroq "40300 misraga yaqin" deb ko'rsatadi. 942 raqamli devon qo'lyozmasida g'azallar sonini 860ta, muxammas 170ta, musaddas 10ta, musabba' 10ta, murabba' 10ta, tarji'band 5ta, ruboiy 96ta, qit'a 94ta, soqiynoma esa 44ta ekanligi ham aytilgan [Qobulov, 1987, 187–191]. Kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, shoirning uchbu devondagi she'rlari N. Qobulov keltirgan ma'lumotdan mutlaqo farq qiladi. Buni quyidagi jadval asosida ko'rish mumkin:

Nº	Janrlar	942-inv. Dev-on.	N.Qobulov tad-qiqotida	Farqlar
1.	G'azal	848	860	12 ta ko'p
2.	Mustazod	3	-	-
3.	Muxammas	167	170	3 ta ko'p
4.	Murabba'	10	10	+
5.	Musaddas	10	10	+
6.	Musamman	6	-	-
7.	Tarje'band	6	5	1 kam
8.	Soqiynoma	5	44	39 ta ko'p
9.	Ruboiy	91	96	5 ta ko'p
10.	Qasida	3	-	-
11.	Qit'a	28	94	66 ta ko'p
	Jami:	1177	1289	125/1

N.Qobulov Avazning 942 raqamli devoni qo'lyozmasidagi g'azallar sonini 10taga, muxammaslar sonini 3taga, soqiynomalar sonini 39taga, ruboiylar sonini 5taga, qit'alar sonini esa 66taga, ya'ni jami 125ta she'rni sun'iy ravishda oshirib, tarji'bandni 1taga kam ko'rsatgan. Natijada shoirning 942 raqamli devoni qo'lyozmasidagi she'rlar soni 1289taga yetgan. Bundan tashqari, shoir devoni qo'lyozmasidagi mustazod, musamman, qasidalarini tilga olinmagan. Vaholanki, ushbu devonda mavjud bo'lmagan musabba'ni 10 ta – deb qayd etadi. Shoirning 3451, 7102 raqamli devoni qo'lyozmalarida ham bu hol takrorlangan.

Quyida Avaz O'tarning 942 raqamli devoni qo'lyozmasidagi she'rlaridan namunalar berildi.

Avaz O'tarning Shermuhammad Munis g'azaliga yozilgan muxammasining dastlabki bandi quyidagicha:

*Bir zamon ayla tavaqquf, ey buti-yu oliyjanob,
Ishq elini qatl etorgo muncha ko'rguzmoy shitob,*

*O'lturub onlorni ne hazz topding oxir, ber javob,
Buzdi dinim kishvarin kofir ko'zing aylob itob,
Bilki, yag'modin hayotim mulkini qildi xarob.*

Maqta'si:

*Gul sifat ersa, **Avaz**, su bo'lg'oy firoqing zahridin,
Birma-bir a'zosi ne bo'lg'oy firoqing zahridin,
No'sh etib paymonasi to'lg'oy firoqing zahridin,
Necha **Munis** talxkom o'lg'oy firoqing zahridin,
No'shi vaslingdin karam aylob oni qil komyob.*

Yoqutjon Is'hoqov "So'z san'ati so'zligi"da murabba'ning qofiya tizimiga ko'ra uch turi haqida ma'lumot bergan [Исхоқов 2014, 110]. Avaz O'tar murabba'larining barchasida "birinchi bandning oxirgi misrasi keyingi bandlarda aynan takrorlanadi". Bu esa murabba'ning qofiya tizimiga ko'ra ikkinchi turiga mansub ekanligini ko'rsatadi. Quyida Avaz O'tarning yetti bandli murabba'sining ilk bandini keltirsak:

*Chekmok ish emdi bo'lur hajrida ozor mango,
Ta'na-dashnom ne tongkim, qilur ag'yor mango,
Aylobon qahri tag'oful yana bisyor mango,
Itifot aylomodi bazm aro dildor mango.*

Maqta':

*Tong emaskim, gar Avaz hajr aro bemor o'lsam
Yuz tuman ofat-u mehnatg'a sazovor o'lsam
G'ussa-vu dardni domig'a giriftor o'lsam
Itifot aylomodi bazm aro dildor mango.*

Avaz O'tarning barcha musaddaslari a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-a-a, d-d-d-d-a-a usulida qofiyalanadi. Ulardan birining ilk bandi shunday:

*Dahrkim, bir joy erur el onda mehmon, ey rafiq,
Bor oning sokinlari ko'nglida armon, ey rafiq,
Bir kuni bo'lsa kerak yer birla yakson, ey rafiq,
Ham bo'lub jami'yati har yon parishon, ey rafiq,
Olam obodi bo'lur oxirida vayron, ey rafiq.
Kim ongo boqiylig' ermasdur namoyon, ey rafiq.*

Maqta'si:

*Hushing o'lsa o'zni qilg'il doxil ahli fano,
Soqiyi davron elidin sipqorib jomi tavallo,*

*Qilmog'oy-san to Avazdek bul-havaslik borho,
Hush eli aldidadur ma'dumi gul mosuvo,
Olam obodi bo'lur oxirida hayron, ey rafiq.
Kim ongo boqiylik' ermasdur namoyon, ey rafiq.*

942 raqamli devon qo'lyozmasiga shoirning kiritilgan 3ta qasida qasidayi tomm va qasidayi mujarrada turlariga mansub. Qasidayi mujarrada turiga mansub qasida shunday boshlanadi:

*Eykim, tamosho aylogil Tengri taolo qudratin,
Chekmish qilib hasratfizo arz-u samoning suratin....*

Mazkur qasida 36 bayt (72 misra)dan tarkib topgan.

Devon qo'lyozmasidan shoirning 5 ta soqiynomasi o'rin olgan. Shundan 4 tasi 1984, 2025-yillarda joriy imloda nashr qilingan [Рахмонов 1984, Ismoilova 2025]. E'lon qilinmagan soqiynomaning ilk bayti shunday:

*Ketur, soqiyo bodayi lolafom,
Bo'loy no'sh etib, oni masti mudom.
Yakunlovchi bayt:*

*Qilib shohi odilni olamg'a shoh,
Mudom aylogil sohibi izz-u joh.*

Avaz O'tar ruboiy janrida ham samarali ijod qilgan shoir. Quyida shoirning Muhammad (s.a.v.)ga atab yozgan ruboiysidan namuna berildi:

*Ul shohi Rusulki, nom erur Ahmad ongo
Kursi ila arshdur iki masnad ongo.
Me'roj tuni o'tdi Umamning jurmin
Altof-u karam Tengri qilib behad ongo.*

Avaz O'tar ijodi Alisher Navoiy asarlari bilan qiyoslab o'rganilgan (Ochilov 2019, 9-10; Haqqulov 2019, 5). Bu tadqiqotlarda, asosan, Navoiy g'azallariga yozilgan taxmis, tatabbu' hamda ulug' shoir "Xamsa"siga yozilgan "Tarje'bandi Xomisa" o'rganilgan. 942 raqamli devon qo'lyozmasidan Alisher Navoiyning "Manda bir o'tdurki gar dam ursam aflok o'rtanur" (199^{a/b}-betlar), "Vodiyi hajringda bir dam qon yutardin qonmadim" (199^b-200^a-betlar), "Saning husning, maning ishqim ajoyib uns tutmishlar" (204^{a/b}-betlar), "Bu oqshom holima sham' o'rtanur, parvona ondin ko'b" (204^b, 205^b-betlar), "Ey ko'ngul, gar kimsa ahvoling demas yor ollida" (205^{a/b}-betlar), "Muvofiq keldilar bo'lmish magar navro'z ila bayram" (235^b-236^a-betlar) misralari bilan boshlanuvchi g'azallariga yozilgan

oltita taxmis o'rin olgan.

Navoiy g'azallariga yozilgan taxmislardan biri "Avaz O'tar tanlangan asarlari" da hamda amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasida uchramaydi. Ushbu taxmisning ilk bandi quyidagicha:

*Agarchi shavq-u zavq o'ti tani zorim qurutmishlor,
Valekin jon-u qalbim hajr aro xunoba yutmishlor,
Olor olamda sandin g'ayrning yodin unutmishlor,
Saning husning, maning ishqim ajoyib uns tutmishlor,
Magar bu sham'ini ul shula'yi tobidin yorutmishlar.*

Oxirgi band:

*Avazdek til ochib hayratda qolsunlor fig'on ahli,
Ki to qilsun fig'onim ko'sh-u arz-u osmon ahli,
Musallam aylobon may no'shlig' ichra jahon ahli,
Navoiy may bila ko'nglumga o't solkim, zamon ahli,
Sovuqlig' oncha qilmishlorki ko'nglumni sovutmishlar*

[Devoni Avaz. 942, 204^{a/b}].

Avaz O'tar ushbu taxmisni Navoiyning "Navodir-ush shabob" devonidan o'rin olgan 9 baytli g'azalga (7 bandli taxmis) yozgan.

Bahri: hazaji musammani solim (V---/V---/V---/V---(mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun) [Навоий 1989, 72 – 73].

Avaz O'tarning 942 raqamli devonida Navoiy g'azallariga yozilgan taxmislardan tashqari Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Omoniy kabi 43ta shoir g'azallariga yozilgan taxmislar ham ko'chirilgan. Avaz O'tar qaysi shoirga nechtdan taxmis yozganini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

6-jadval

№	Shoir taxallusi	G'azallar soni	№	Shoir taxallusi	G'azallar soni
1.	Komil Xorazmiy	5ta	23	Ravnaq	5ta
2	Feruz	8ta	24	Sodiq	4ta
3	Omoniy	4ta	25	Munis	5ta
4	Xolis	5ta	26	Bedil	1ta
5	Rojiy	4ta	27	Xokiy	2ta
6	Sa'diy	9ta	28	Yusuf	2ta
7	Ogahiy	13ta	29	Husayniy	5ta
8	Sultoniy	8ta	30	Haqiriy	2ta
9	Bayoniy	3ta	31	Niyoziy	2ta
10	Asad	7ta	32	Xayoliy	2ta
11	Fuzuliy	4ta	33	Mirzo	2ta
12	G'oziy	7ta	34	Habib	2ta
13	Oqil	3ta	35	Ojiz	2ta

14	Nozir	3ta	36	Rog'ib	2ta
15	G'ulomiy	3ta	37	Mutrib	2ta
16	Shinosiy	2ta	38	Xodim	2ta
17	Navoiy	6ta	39	Muznib	2ta
18	Purkomil	3ta	40	Nadimiy	2ta
19	Kamoliy	3ta	41	Chokar	2ta
20	Doiy	3ta	42	Devoniy	2ta
21	Inoyat	3ta	43	Tabibiy	1ta
22	Umidiy	3ta	Avaz o'zining 7 baytli g'azaliga ham taxmis yozgan		
Avaz O'tarning tab'i xud taxmislari soni: 6 ta. Jami taxmislar soni: 167ta.					

Shoirning 942 raqamli qo'lyozma devonida jami 167ta muxammas bor. Shundan 161tasi taxmis, qolgan 6tasi tab'i xud.

Avaz O'tar 942 raqamli devonida eski o'zbek yozuvi alifbosidagi 32 harfdan 30tasi bilan tugaydigan g'azallar mavjud. Faqat "pe" va "je" harflari bilan tugaydigan g'azallar uchramaydi. Ular quyidagilar:

"alif" – 76 ta, "be" – 41 ta, "pe" – 0, "te" – 33 ta, "se" – 16 ta, "jim" – 9 ta, "chim" – 17 ta, "hoi huttiy" – 19 ta, "xe" – 24 ta, "dol" – 30 ta, "zol" – 13 ta, "re" – 79, "ze" – 33 ta, "je" – 0, "sin" – 21, "shin" – 20 ta, "sod" – 13 ta, "zod" – 15 ta, "to (itqi)" – 13 ta, "zo (izg'i)" – 11 ta, "ayn" – 13 ta, "g'ayn" – 16 ta, "fe" – 13 ta, "qof" – 22 ta, "kof" – 5 ta, "gof" – 20 ta, "lom-alif" – 27 ta, "mim" – 52 ta, "nun" – 77 ta, "vov" – 18 ta, "hoi havvaz" – 59 ta, "yo" – 43 ta. **Jami:** 848 ta.

N. Qobulov "Avaz va uning adabiy muhiti" monografiyasida "Man hazin-u bekaskim, holatim xarob, ey sho'x" misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g'azal maqtasida keltirilgan baytga tayanib, "Avaz O'tarning bizgacha uchta qo'lyozma devoni yetib kelgan"ini ta'kidlaydi [Қобилов 1987, 118, 121]. Nazarda tutilgan g'azal Avaz O'tarning 942 raqamli devon qo'lyozmasiga kitobat qilingan. Uning matlasi shunday:

Aylob orazing vasfin so'rgoli, Avaz, to so'z

Bir o'zini devoni bo'ldi uch kitob, ey sho'x...

[Devoni Avaz. 942. 47^a].

Vaholanki, shoir bu maqta'ning 2-misrasida barcha she'rlari uch kitobda jamlanganiga ishora qilmoqda. N. Qobulov esa shoirning "uch devon" tuzganini asoslamochi bo'ladi. Hozirda shoirning birinchi devoni ikki nusxada, ikkinchi devoni bir nusxada yetib kelganini aytish maqsadga muvofiqdir. N. Qobulovning qaydlariga tayanib, bir qancha olim, tadqiqotchilar haligacha "Avaz O'tarning bizgacha uchta devoni yetib kelgan" degan fikrni ilgari suradilar.

1^b sahifadan 188^b sahifagacha – g'azallar, 188^b sahifadan 190^a sahifagacha – mustazodlar, 190^a sahifadan 263^a sahifagacha – muxammas, 263^a sahifadan 269^a sahifagacha – murabba', 269^a sahifadan 275^b sahifagacha – musaddas, 275^b sahifadan 280^b sahifagacha – musamman, 280^b sahifadan to 287^b sahifagacha – “Tarje’oti Avaz Farhod-u Shirin”, “Tarjebandi Avaz Bahromko’r vazni”, “Tarje’bandi Avaz Layli-Majmun vazni”, “Tarje’bandi Avaz hayrat vazni”, “Tarje’bandi Avaz Iskandar vazni”, 288^a sahifadan 289^a sahifagacha – “Tarje’bandi Avaz”, 289^a sahifadan 294^a sahifagacha – soqiynoma, 294^a sahifadan 300^b sahifagacha – ruboiy, 301^a sahifadan 304^a sahifagacha – qasida, 304^a sahifadan 307^a sahifagacha – qit’a janridagi she’rlari ko’chirilgan. Qo’lyozma boshida 4, oxirida esa 3 sahifa bo’sh qoldirilgan.

Qo’lyozma matni nasta’liq xatida, qora siyohda ko’chirilgan bo’lib, har bir janr sarlavhasi qizil siyoh bilan avval raqam, janr nomi, shoir ismi “2 g’azali Avaz O’tar”, “1 muxammasi Avaz O’tar”, “1 musaddasi Avaz O’tar”, “Qasidai Avaz O’tar” kabi nomlangan. Devon sahifalarining izchilligini ko’rsatish maqsadida kotib tomonidan poygir berilgan. Poygir: “b” sahifaning birinchi so’zi “a” sahifaning pastki qismida qiya shaklda ko’rsatilgan. Qo’lyozma sahifalari mukammal bo’lib, matn yaxshi saqlangan. Devon hoshiyalariga bitilgan she’rlar esa, “G’azali Avaz”, “G’azal”, “Muxammasi Avaz” deya sarlavhalangan. Hoshiyadagi she’rlar raqamlanmagan.

Qo’lyozma devon muqovasi to’q yashil rangda. Unga o’yma naqsh ishlangan. Muqovaning yuqori va past qismiga unvon tushirilgan. Unda “Amali Muhammad Rahim sahhob – 1326” degan ma’lumot bor. Muqova o’rtasi gulli naqsh bilan bezatilgan. Qo’lyozma tarkibiga kirgan she’rlar fabrika qog’oziga, qora va qizil siyohda, ikki ustun shaklda joylashtirilgan. Har sahifada o’rtacha 19-20 satr she’r bor. Devon sahifalari sahhoflar tomonidan betartib tikilgan. “Poygir” orqali she’r matni uzviyligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Qo’lyozmaning 1^b, 9^a, 11^a, 55^b, 87^a, 287^a, 191^b, 192^a sahifalarida she’rlar matni bo’yalgan. Qo’lyozma o’lchovi: 27,5x17,5. Devon 310 varaq, 620 sahifadan iborat.

Xulosa

Avaz O’tar qo’lyozma devonlari O’zR FASHI asosiy fondida 3451, 7102 hamda 942 raqamlari ostida saqlanadi. 3451, 7102 raqamli devon qo’lyozmalari bir devonning ikki nusxasidir. 942 raqamli devon qo’lyozmasi esa alohida bir devon ekanligini ta’kidlash lozim.

3451 raqamli devon qo'lyozmasi hijriy 1325-, milodiy 1907-yili Chokar tomonidan kitobat qilingan. Unda 995ta she'r bor. Bular: 960ta g'azal (shundan 322tasi hoshiyada berilgan), 1ta mustazod, 31ta muxammas (shundan bittasi hoshiyada), 1ta musaddas, 1ta musabba', 1ta qasida.

7102 raqamli devon qo'lyozmasi hijriy 1326, milodiy 1908-yil 25-avgustda Mullo Boltaniyoz Usto Qurbonniyoz tomonidan ko'chirilgan. 3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi 997 ta she'r 394 taga to'ldirilib, 7102 raqamli qo'lyozma devonga kiritilgan. Natijada 7102 raqamli devon qo'lyozmasidagi she'rlar soni 1391 taga yetgan.

3451 raqamli devondagi 997ta she'rdan 996ta she'r (bayt, misralari saqlangan holda) 7102 raqamli devonga aynan kiritilib, faqat 3451 raqamli devon qo'lyozmasidagi 7 baytli g'azal 7102 raqamli devon qo'lyozmasida qayta ko'chirilmagan. Mana shu 7 baytli g'azalni ham hisobga olsak, 3451 hamda 7102 raqamli devon qo'lyozmalarida shoirning 1392ta she'ri borligi ma'lum bo'ladi.

942 raqamli qo'lyozma devon hijriy 1326, milodiy 1908-yil 12-oktabrda Muhammad Rahimxon – II farmoniga ko'ra Usto Qurbonniyozning o'g'li mullo Boltaniyoz tomonidan ko'chirilgan. Devonda Avaz O'tarning 1177 ta she'ri o'rin olgan. Ular 848ta g'azal (shundan 174 tasi hoshiyada), 3ta mustazod, 167ta muxammas (shundan 21 tasi hoshiyada), 10ta murabba', 10ta musaddas, 6ta musamman, 6ta tarje'band (shundan 5tasi Alisher Navoiy "Xamsa" siga yozilgan tarje'band), 5ta soqiynoma, 91ta ruboiy, 3ta qasida, 28ta qit'adir.

Avaz O'tar hayoti va ijodini o'rgangan adabiyotshunos olimlardan G.Karimov, Yu.Yusupov va N.Qobulovning shoir adabiy merosining manbalari hamda ularning tarkibi haqidagi fikrlarini inobatga olgan holda, bugungi manbashunoslik va matnshunoslik talablari nuqtayi nazaridan qayta o'rganishga zarurat bor.

Adabiyotlar

O'zR FASHI qo'lyozma. *Devoni Avaz*. № 3451.

O'zR FASHI qo'lyozma. *Devoni Avaz*. № 7102.

O'zR FASHI qo'lyozma. *Devoni Avaz*. № 942.

O'zR FASHI qo'lyozma. *Bayoz*. № 1128.

Аваз Ўтар. 1951. *Танланган асарлар*. Нашрга тайёрловчи: Аҳмад Бобожон. Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.

Аваз Ўтар. 1956. *Танланган асарлар*. Нашрга тайёрловчи: Юнус Юсупов. Тошкент: Ўзбекистон ССР давлат нашриёти.

Аваз Ўтар ўғли. 1976. *Девон*. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Ваҳоб Раҳмонов. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

- Аваз. 1984. *Сайланма*. Нашрга тайёрловчилар: Юнус Юсупов ва Ваҳоб Раҳмонов. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Аваз Ўтар. 2025. *Танланган асарлар*. Юнус Юсупов нашри асосида қайта нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Гулсара Исмоилова. Тошкент: SANNOF.
- Каримов, Ғ. 1966. *Ўзбек адабиёти тарихи: Дарслик. Учинчи китоб (XIX асрнинг иккинчи ярмидан XX аср бошларигача)*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Юсупов, Ю. 1983. *Ўт чақнаган сатрлар*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Қобулов, Н., В. Мўминова, ва И. Ҳаққулов. 1987. *Аваз ва унинг адабий муҳити*. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 1989. *Мукаммал асарлар тўплами*. Йигирма томлик. Тўртинчи том. *Ҳазоин ул-маоний. Наводир уш-шабоб*. Тошкент: Фан.
- Исҳоқов, Ё. 2014. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Очилов, Э. 2019. "Аваз ижодида Навоий анъаналари." *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 9–10.
- Ҳаққулов, Иброҳим. 2019. "Исёнкор қалб ва ижод соҳиби." *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 5–8.
- Yusupova, D. 2019. *Aruz vazni qoidolari va mumtoz poetika asoslari*. Toshkent: Ta'lim-Media.
- Yusupova, D. 2020. *Aruz va Mumtoz poetikaga kirish*. Toshkent: Akademnashr.
- Madirimova, S. 2019. "About Mutrib Khonakharobiy's New Mukhammasi." *in Library* 19 (4): 72–75.
- Мадиримова, С. 2022. "Мутриб хонахароб ҳаёти ва ижодининг ўрганилиши." *in Library* 22 (1): 47–50.
- Madirimova, S. 2023. "Mutrib asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari." *Oltin bitiglar – Golden Scripts* 2 (2).
- Madirimova, S. 2024. "To'ramurod To'ra Sayyid Muhammadxon o'g'li hayot yo'li va ijodiy merosi." *Oltin bitiglar – Golden Scripts* 2 (2).
- Madirimova, S. 2025. "Avaz Utar's Mukhammasess on Komil Khorezmi's Ghazals." *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture* 6 (4): 887–894.

Description of Avaz O'tar's Manuscript Divans

Sohiba Madirimova¹

Abstract

This article presents a comprehensive study of three manuscript *divans* of the Khorezmian enlightenment poet Avaz O'tar (1884–1919), preserved under inventory numbers 3451, 7102, and 942. The manuscript collections are examined in chronological order, and detailed information is provided on the poetic genres represented therein, including *ghazal*, *mustazad*, *mukhammas*, *murabbaʻ*, *musaddas*, *musamman*, *tarjiʻband*, *Tarjiʻband-i Khomisa*, *saqinama*, *rubāʻī*, *qasida*, and *qitʻa*.

Numerous studies devoted to the life and literary activity of Avaz O'tar have focused primarily on the artistic qualities of his poetry and its relationship to literary tradition. However, the thematic scope of the poet's literary heritage has not yet been thoroughly clarified on the basis of primary manuscript sources.

The article presents the first textological and source-critical study of the manuscript *divans* of Avaz O'tar. It provides a scholarly description of the *divans*' structural composition, extent, palaeographic characteristics, scribe, binding, and other codicological features. Furthermore, the study reassesses the views of such scholars as G. Karimov and N. Qobulov regarding the scope and thematic range of Avaz O'tar's literary legacy, offering new insights based on evidence drawn directly from the manuscript *divans*.

Key words: *Avaz Utar, manuscript, ghazal, mukhammas, musamman, devan, mustakhzod.*

References

- O'zR FASHI qo'lyozma. *Devoni Avaz*. № 3451.
O'zR FASHI qo'lyozma. *Devoni Avaz*. № 7102.
O'zR FASHI qo'lyozma. *Devoni Avaz*. № 942.
O'zR FASHI qo'lyozma. *Bayoz*. № 1128.
Avaz O'tar. 1951. *Tanlangan asarlar*. Nashrga tayyorlovchi: Ahmad Bobojon. Toshkent: O'zSSR FA nashriyoti.
Avaz O'tar. 1956. *Tanlangan asarlar*. Nashrga tayyorlovchi: Yunus Yusupov. Toshkent: O'zbekiston SSR davlat nashriyoti.

¹ *Sohiba M. Madirimova* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, associate professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

For citation: Madirimova, S. M. 2026. "Description of Avaz O'tar's Manuscript Divans". *Golden Scripts* 1: 37 – 63.

- Avaz O'tar o'g'li. 1976. *Devon*. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: Vahob Rahmonov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Avaz. 1984. *Saylanma*. Nashrga tayyorlovchilar: Yunus Yusupov va Vahob Rahmonov. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Avaz O'tar. 2025. *Tanlangan asarlar*. Yunus Yusupov nashri asosida qayta nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: Gulsara Ismoilova. Toshkent: SAHHOF.
- Karimov, G'. 1966. *O'zbek adabiyoti tarixi: Darslik. Uchinchi kitob (XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha)*. Toshkent: O'qituvchi.
- Yusupov, Yu. 1983. *O't chaqnagan satrlar*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Qobulov, N., V. Mo'minova, va I. Haqqulov. 1987. *Avaz va uning adabiy muhiti*. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 1989. *Mukammal asarlar to'plami*. Yigirma tomlik. To'rtinchi tom. *Xazoin ul-maoniy. Navodir ush-shabob*. Toshkent: Fan.
- Is'hoqov, Y. 2014. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: O'zbekiston.
- Ochilov, E. 2019. "Avaz ijodida Navoiy an'analari." *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 9–10.
- Haqqulov, Ibrohim. 2019. "Isyonkor qalb va ijod sohibi." *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 5–8.
- Yusupova, D. 2019. *Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari*. Toshkent: Ta'lim-Media.
- Yusupova, D. 2020. *Aruz va Mumtoz poetikaga kirish*. Toshkent: Akademnashr.
- Madirimova, S. 2019. "About Mutrib Khonakharobiy's New Mukhammasi." *in Library* 19 (4): 72–75.
- Madirimova, S. 2022. "Mutrib Xonaxarob hayoti va ijodining o'rganilishi." *in Library* 22 (1): 47–50.
- Madirimova, S. 2023. "Mutrib asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari." *Oltin bitiglar – Golden Scripts* 2 (2).
- Madirimova, S. 2024. "To'ramurod To'ra Sayyid Muhammadxon o'g'li hayot yo'li va ijodiy merosi." *Oltin bitiglar – Golden Scripts* 2 (2).
- Madirimova, S. 2025. "Avaz Utar's Mukhammas on Komil Khorezmi's Ghazals." *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture* 6 (4): 887–894.